# 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5012,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 101,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 47,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 8,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 5,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

## 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi




***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi




***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 10,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog`-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajim indeksi 108,8 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2821,1 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 5,4 % ni (2018-yil yanvar-sentyabr oylarida - 5,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 19,5 % (19,7 %) va quyi texnologiyali - 69,2 % (68,8 %) tashkil etdi.

***Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***



Jami sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 15,9 % (2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 1,7 %), boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi - 8,4 % (5,8 %), kiyim kechak mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi - 6,0 % (5,6 %), teri va unga tegishli mahsulotlarini ishlab chiqarish - 3,6 % (12,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish - 3,1 % (27,4 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yumshoq bug`doy va spelta uni - 1,0 m., boshqa tolali materiallardan(yog`ochdan tashqari) olinganseluloza - 2,7 m., etilen polimerlardan qoplar va sumkalar - 1,9 m., yo`l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar - 1,3 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari sanoat sohasida hizmatlar ko`rsatish hajmini oshirish imkonini berib, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonning bir qismini bajarish (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 463,5 %), tayor metal buyumlarini ta`mirlash va tehnik hizmat ko`rsatish (101,5 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | 2018 yil yanvar-avgustga nisbatan, % |
|---|---|---|---|
| 514,8 | **Sellyuloza, ming t 90%**  | 1000,0 | 194,2 ↑ |
| 26,3 | **Un, ming tonna**  | 27,4 | 104,2 ↑ |
| 1051,0 | **Ho`jalik sovuni tona**  | 804,5 | 76,5 ↓ |
| 3314,1 | **Kalava ip, tonna**  | 2354,2 | 71,0 ↓ |
| 28,2 | **Paxta tolasi, ming tonna**  | 17,2 | 60,9 ↓ |
| 44,7 | **Paxta urug'I, ming tonna**  | 26,9 | 60,2 ↓ |
| 29,5 | **Kunjara, ming tonna**  | 17,2 | 58,3 ↓ |
| 6,4 | **O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna**  | 3,1 | 47,8 ↓ |
| 825,8 | **Aroq – mig litr 100 % spirt**  | 262,8 | 31,8 ↓ |



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2032,2 mlrd. so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,5 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog’ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug’ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | Sanoati mahsulotlari | 2019-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | 2018-yil yanvar-sentyabrga nisbatan, % |
|---|---|---|---|
| | **Elektroenergiya, mln.kVt/s** | | |
| 11458,9 |  | 10924,4 | 95,3 |
| | **Issiqlik energiyasi, ming Gkal** | | |
| 172,2 |  | 144,3 | 83,8 |




**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 148,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 1,4 martaga, oqova suvlarni yo`qotish, transpartirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,2 martaga, shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo'yicha xizmatlar – 3,4 % ga oshganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | Sanoati mahsulotlari | 2019-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan | 2018-yil yanvar-sentyabrga nisbatan, % |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda** | | | |
| 7140,6 |  | 10249,0 | 143,5 ↑ |
| **Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda** | | | |
| 1771,7 |  | 6404,8 | 3,6 m. ↑ |

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1876,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,4 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan o'sishi sur'ati**




2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 63,3 % dan 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida 64,0 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 2,7 % ni (2018-yil yanvar-sentyabr oylarida 4,1 %) tashkil etdi.

## Hududlar bo’yicha 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati

| | Mlrd. so’m | Jamiga nisbatan ulushi, % | 2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan o’sish, % |
|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **1876,7** | **100,0** | **104,2** |
| Guliston shahri | 349,1 | 18,6 | 107,4 |
| Shirin shahri | 16,8 | 0,9 | 91,4 |
| Yangiyer shahri | 110,5 | 5,9 | 201,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| Boyovut tumani | 181,0 | 9,6 | 43,6 |
| Guliston tumani | 54,3 | 2,9 | 91,3 |
| Mirzaobod tumani | 229,8 | 12,2 | 177,1 |
| Oqoltin tumani | 59,3 | 3,2 | 103,9 |
| Sardoba tumani | 52,8 | 2,8 | 102,8 |
| Sayhunobod tumani | 114,3 | 6,1 | 107,5 |
| Sirdaryo tumani | 626,0 | 33,4 | 126,5 |
| Xovos tumani | 82,8 | 4,4 | 92,8 |

## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1215,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,3 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 95,5 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi - 4,5 % ni tashkil etdi.

## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

| | 2019 yil yanvar-sentyabr, mlrd. so’m | 2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan, % |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **5012,4** | **101,5** |
| Guliston shahri | 797,6 | 113,9 |
| Shirin shahri | 1942,7 | 119,0 |
| Yangiyer shahri | 184,8 | 108,0 |
| *tumanlar:* | | |
| Boyovut tumani | 212,4 | 102,3 |
| Guliston tumani | 71,5 | 102,7 |
| Mirzaobod tumani | 181,9 | 98,8 |
| Oqoltin tumani | 123,5 | 116,7 |
| Sardoba tumani | 151,1 | 90,7 |
| Sayhunobod tumani | 210,5 | 102,4 |
| Sirdaryo tumani | 1035,1 | 105,8 |
| Xovos tumani | 111,3 | 104,8 |

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko’p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,8 %), Sirdaryo tumani (20,6 %), Guliston shahri (15,9 %), Sayhunobod tumani (4,2 %), Boyovut tumini (4,3 %) va Yangiyer shahri (3,7 %) hissasiga to’g’ri kelmoqda.

## 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- sentyabr oylariga nisbatan %




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Shirin shahri (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 %), Oqoltin tumani (116,7 %), Guliston shahri (113,9 %), Yangiyer shahri (108,0 %), Sirdaryoi (105,8 %) va Xovos (104,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 201,7 %), Mirzaobod tumani (177,1 %), Sirdaryo tumani (126,5 %), Sayhunobod tumani (107,5 %), Guliston shahri (107,4 %), Oqoltin (103,9 %) va Sardoba tumanlarida (102,8 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 33,4 %), Guliston shahar (18,6 %), Mirzaobod (12,2 %) va Boyovut (9,6 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining, 2018-yil yanvar- sentyabr oylariga nisbatan o'sishi %**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (10445,7 ming so'm), Guliston shahrida (8901,7 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (8175,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5997,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2245,4 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida - 4944,8 ming so'mni, Guliston shahrida - 3896,8 ming so'mni, Mirzaobod tumanida - 3196,2 ming so'mni va Yangiyer shahrida – 2581,6 ming so'mni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm

| | Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish | Istemol mollari |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **5997,1** | **2245,4** |
| Guliston shahri | 8901,7 | 3896,8 |
| Shirin shahri | 10445,7 | 906,1 |
| Yangiyer shahri | 4318,5 | 2581,6 |
| *tumanlar:* | | |
| Boyovut tumani | 1659,3 | 1414,1 |
| Guliston tumani | 1003,1 | 761,0 |
| Mirzaobod tumani | 2390,9 | 3196,2 |
| Oqoltin tumani | 2407,0 | 1155,2 |
| Sardoba tumani | 2321,2 | 810,9 |
| Sayhunobod tumani | 2758,8 | 1497,7 |
| Sirdaryo tumani | 8175,9 | 4944,8 |
| Xovos tumani | 1180,7 | 878,2 |

## 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan %




## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2431,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sirdaryo tumanida (86,3 %), Guliston shahrida (80,2 %), Guliston tumanida (79,2 %), Sayhunobod tumanida (69,4 %), va Boyovut tumanida (59,4 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Xovos tumanida (55,9 %), Oqoltin tumanida (50,7 %) va Sardoba tumanida (31,2 %) kuzatildi.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 1638 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 466 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,4 %) Guliston shahriga, 302 tasi (18,4 %) Sirdaryo tumaniga, 129 tasi (7,9 %) Boyovut tumaniga to’gri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

*(2019-yil yanvar-sentyabr)*




2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Viloyatda 445 ta yangi sanoat korxonalari tash

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 445 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 48,3 foizi Guliston shahri, Sirdaryo va Xavast tumanlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**
*(2019-yil yanvar-sentyabr)*




**Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi**
**Sanoat statistikasi bo`limi**
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23